ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 250 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CODEPЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Ганурова

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik mohiyati ... 97
Mavlyanova Umida Sadikjanovna

Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari 101
Choriyeva Durdona Anvarovna, Malikova Umida Nurliboy qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi

Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar milliy qadriyatlariga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 106
Turg'unov Baxromjon Raximjonovich

Tarbiyachi-pedagoglarda deontologik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik yondashuvlari 112
Davlatova Dildora Nuriddinovna

Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari 115
A. B. Mamatova

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati monitoringi va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 123
Mongiyev Abdulxokim Ibragimovich

Transformational School Leadership and Teacher Performance: A Narrative Literature Review 127
Nilufar Buriyeva Anvar kizi, Axatov Aminjon Tohir ugli,
Sodiqova Marziyaxon Botirjon kizi, Lutfullayeva Moxistara Xayrullo kizi

Pedagogical Model for Improving the Methodological Competence of Future History Teachers Based on Digital Historical Sources 133
Otegenov Berdibay Menglibaevich

Tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari va ertakterapiya imkoniyatlari 136
Qosimova Muattarxon Shokirjon qizi

O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik mahorat, refleksiv va innovatsion yondashuvning integratsiyasi 140
Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna

Xorijiy tajribalar asosida maktab ta'lim mazmunini takomillashtirish 146
Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Teshayeva Toxira Inomjonovna

Pedagogik muhandislikning metodologik asoslari, kategoriyaviy apparati va yondosh ilmiy-pedagogik yo'nalishlar bilan o'zaro aloqadorligi 151
Nasrullayeva Fatima Azatovna

Рефлексивная подготовка будущих воспитателей к личностно ориентированному взаимодействию с дошкольниками 160
Бозорова Зухра Жураевна

Bo'lajak tarbiyachilarning tasviriy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni 165
Xazratkulova Gulyora Tojiboyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili ta'limini loyihalash kompetensiyasini metakognitiv yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi 169
Raupova Navbahor Bahriddinovna

Kursant va talabalarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish va ekstremal sharoitlarda harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari 174
Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich

Talabalarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyati 179
Sharipova Guzal Sodiqovna

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining matematik tasavvurlarini mental yondashuv asosida takomillashtirish: nazariy-metodik sharh 185
Parpiyeva Mohinur Baxtiyor qizi

STEAM yondashuvi asosida fizika laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi 189
Artikov Abdukaxor

"Korpus detektori" mashqlar tizimi: tuzilishi, bosqichlari va qo'llash metodikasi 196
Bahronov Nodirbek Aliyevich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongli o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda tabaqalashtirilgan yondashuv (EGRA-U diagnostikasi asosida) 199
Ne'matova Diyora Baxodir qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Ona tili darslarida hamkorlik texnologiyasidan foydalanishning mavjud holati va metodik muammolari 205
Usmonova Yulduz Faxriddin qizi

Grammatik tarjima metodida ona tilidan foydalanishning didaktik xususiyatlari 210
Erkinova Madina Komil qizi

Talabalarda ta'limiy kommunikativlikni rivojlantirishning pedagogik shart sharoitlari 214
Babayeva Maxfuza Abduvaitovna, Ismoilov Bobur Toxirovich

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi refleksiv kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish darajalari 218
Bomurodova Gulhayo Jumayevna

Masalalarni tenglama tuzish yordamida yechimini qurishga o'rgatish metodikasi 223
Ismoilov Bobur Toxirovich, Babayeva Maxfuza Abduvaitovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash mazmunida argumentatsion nutq: darsliklar, o'quv reja va oliy ta'lim adabiyotining kontent-tahlili 229
Mamatova Marg'uba Ummatqul qizi

Основы паллиативной помощи педагогическая поддержка детей, получающих паллиативную помощь 233
Жузбаев Нурлан Урал угли, Хакимова Гульшода Абдусаламовна

"Pedagogikaning pragmatik aspektlari" modulini kreativ yondashuv asosida o'qitish modeli va ingliz tilidagi o'quv materiallarini tanlash mezonlari 237
Meliqo'ziyeva Zarnigorxon Ikromjon qizi

Gospital sharoitida turli yosh guruhlaridagi bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari 242
S. M. Umarova

Harbiy xizmatchilarda kasbiy faoliyat davomida hissiy kuyish (emotsional burnout) sindromining ijtimoiy-psixologik psixoprofilaktikasi 246
Tursunov Kamariddin G'ulomovich

HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY FAOLIYAT DAVOMIDA HISSIY KUYISH (EMOTSIONAL BURNOUT) SINDROMINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK PSIXOPROFILAKTIKASI

Tursunov Kamariddin G'ulomovich
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarda kasbiy faoliyat davomida hissiy kuyish (emotsional burnout) sindromining nazariy asoslari - uning uch komponentli model va ish talablari-resurslari (JD-R) modeli nuqtai nazaridan tahlili - xorij tadqiqotlari misolida yoritilgan. Maqolada boshqaruv bo'g'ini (ofitser tarkibi, serjant tarkibi, oddiy xizmatchilar) kesimida hissiy kuyish darajasi K.Maslach va S.Jekson tomonidan ishlab chiqilgan Maslach Burnout Inventory (MBI) metodikasi hamda Kruskal-Uollis H mezoni yordamida empirik o'rganilgan.

Tadqiqot natijalari ofitser tarkibida hissiy kuyish ko'rsatkichlarining boshqa guruhlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot yakunida harbiy qismlarda, ayniqsa boshqaruv bo'g'ini xodimlari uchun hissiy kuyishning oldini olishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik psixoprofilaktika dasturini joriy etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Hissiy kuyish, emotsional burnout, harbiy xizmatchilar, MBI metodikasi, ish talablari-resurslari modeli, Kruskal-Uollis mezoni, kasbiy stress, psixoprofilaktika.

Abstract: This article examines the theoretical foundations of burnout syndrome among military personnel in the course of their professional activities, drawing on international research and analyzing the phenomenon from the perspectives of the three-dimensional model of burnout and the Job Demands-Resources (JD-R) model. The study empirically investigates burnout levels across different categories of military personnel (commissioned officers, non-commissioned officers, and enlisted personnel) using the Maslach Burnout Inventory (MBI), developed by C. Maslach and S. Jackson, and the Kruskal-Wallis H test.

The findings indicate that burnout levels among commissioned officers are significantly higher than those observed in other groups of military personnel. Based on the research results, recommendations are provided for implementing a socio-psychological burnout prevention program in military units, with particular emphasis on personnel performing managerial and leadership functions.

Key words: emotional exhaustion, burnout syndrome, military personnel, Maslach Burnout Inventory (MBI), Job Demands-Resources model, Kruskal-Wallis test, occupational stress, psychological prevention.

Аннотация: В данной статье на примере зарубежных исследований рассмотрены теоретические основы синдрома эмоционального выгорания у военнослужащих в ходе профессиональной деятельности - её анализ с точки зрения трехкомпонентной модели и модели рабочих требований-ресурсов (JD-R). В статье эмпирически изучен уровень эмоционального выгорания в разрезе уровня управления (офицерский состав, сержантский состав, рядовой состав) с помощью методики Maslach Burnout Inventory (MBI) К. Маслач и С. Джексон, а также критерия Краскела-Уоллиса Н.

Результаты исследования показали, что у офицерского состава показатели эмоционального выгорания значительно выше, чем у других групп. По итогам исследования предложены рекомендации по внедрению в воинских частях, особенно для управленческого состава, программы социально-психологической психопрофилактики эмоционального выгорания.

Ключевые слова: эмоциональное выгорание, военнослужащие, методика MBI, модель рабочих требований-ресурсов, критерий Краскела-Уоллиса, карьерный стресс, сихопрофилактика.

KIRISH

Harbiy xizmat, o'zining yuqori mas'uliyat, qat'iy tartib-intizom va doimiy zo'riqish bilan bog'liqligi tufayli, xodimlarning ruhiy-emotsional resurslarini talab qiluvchi kasbiy faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Uzoq muddatli kasbiy stress ta'sirida shaxsda "hissiy kuyish" (emotsional burnout) deb ataluvchi holat rivojlanishi mumkin, bu

esa xizmat samaradorligiga, jamoadagi munosabatlarga va xodimning umumiy ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

"Burnout" atamasini ilmiy muomalaga birinchi bo'lib amerikalik psixolog G.Freydenberger kiritgan bo'lib, u dastlab bu hodisani yordam ko'rsatish sohasi (klinikalar, ijtimoiy xizmat) xodimlarida kuzatilgan kasbiy "kuyish" holati sifatida ta'riflagan [2].

Keyinchalik K.Maslach va S.Jekson bu hodisani uch komponentli tuzilma sifatida kontseptuallashtirdilar: emotsional charchash, depersonalizatsiya (atrofdagilarga nisbatan sovuq, sinik munosabat) va kasbiy yutuqlarning pasayishi (o'z faoliyatining samaradorligiga ishonchning yo'qolishi) [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

K.Maslach, V.Shaufeli va M.Leyterning keyingi tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, hissiy kuyish faqat yordam ko'rsatish sohasiga xos bo'lmay, balki yuqori mas'uliyat va doimiy zo'riqish bilan bog'liq har qanday kasbiy faoliyatda, jumladan harbiy va huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarda ham rivojlanishi mumkin [3]. Ushbu jarayonni tushuntirishda A.Bakker va E.Demerouti tomonidan ishlab chiqilgan "ish talablari-resurslari" (Job Demands-Resources, JD-R) modeli katta ahamiyatga ega - unga ko'ra, kasbiy talablarning shaxs resurslaridan doimiy ravishda oshib ketishi hissiy kuyishning asosiy mexanizmi hisoblanadi [6].

Hissiy kuyish sindromining klinik-psixologik ko'rinishlari orasida quyidagi belgilar alohida ajratiladi:

- doimiy jismoniy va ruhiy charchash, kuch-quvvatning tez tugashi (emotsional charchash);
- hamkasblar va bo'ysunuvchilarga nisbatan sovuq, rasmiy, sinik munosabatning kuchayishi (depersonalizatsiya);
- o'z kasbiy faoliyatining ma'no va samarasiga ishonchning pasayishi, o'ziga bo'lgan professional hurmatning yo'qolishi (kasbiy yutuqlarning pasayishi).

C.Cherniss tomonidan yordam ko'rsatish va yuqori stressli kasblar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, boshqaruv mas'uliyatiga ega bo'lgan xodimlarda hissiy kuyish ko'pincha oddiy ijrochi xodimlarga nisbatan tezroq va chuqurroq shakllanadi, chunki ular nafaqat o'z faoliyati, balki bo'ysunuvchilarning natijalari uchun ham mas'uliyat his qiladilar [4].

J.Violanti va D.Peyton tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi va harbiy tuzilmalar xodimlari orasida olib borilgan tadqiqotlar ham yuqori stressli kasbiy muhitning kasbiy travma va hissiy kuyish darajasiga sezilarli ta'sirini tasdiqlagan [5].

Zamonaviy G'arb tadqiqotlarida hissiy kuyish muammosi K.Maslach, S.Jekson, V.Shaufeli, M.Leyter, G.Freydenberger, C.Cherniss, A.Bakker, E.Demerouti, J.Violanti kabi tadqiqotchi-olimlar tomonidan turli kasbiy guruhlar, jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va harbiy tuzilmalar misolida faol o'rganib kelinmoqda.

Harbiy qismlarda psixoprofilaktik ishning tashkiliy-metodik asoslari borasida esa A.G.Karayani va I.V.Siromyatnikov tomonidan muhim ilmiy-amaliy ishlar olib borilgan [7].

Shunga qaramay, O'zbekiston sharoitida harbiy xizmatchilarning boshqaruv bo'g'ini (ofitser, serjant, oddiy xizmatchi) kesimida hissiy kuyish darajasining qiyosiy tahlili hozircha yetarli darajada o'rganilmagan. Shundan kelib chiqib, ushbu tadqiqotning maqsadi - harbiy xizmatchilarda boshqaruv bo'g'ini bo'yicha hissiy kuyish darajasini qiyosiy tahlil qilish hamda olingan natijalar asosida ijtimoiy-psixologik psixoprofilaktika dasturi mazmunini ilmiy asoslashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda uchta boshqaruv bo'g'inidagi harbiy xizmatchilar ishtirok etdi: ofitser tarkibi (N=95), serjant tarkibi (N=110) va oddiy xizmatchilar tarkibi (N=105). Tadqiqotning umumiy tanlanma hajmi N=310 nafarni tashkil etdi.

Harbiy xizmatchilarda hissiy kuyish darajasini aniqlash uchun K.Maslach va S.Jekson tomonidan ishlab chiqilgan Maslach Burnout Inventory (MBI) metodikasidan foydalanildi [1]. Metodika quyidagi uchta asosiy shkalani o'z ichiga oladi: emotsional charchash, depersonalizatsiya va kasbiy yutuqlarning pasayishi. Shuningdek, metodikaning umumlashtirilgan ko'rsatkichi - umumiy kuyish darajasi - alohida tahlil qilindi.

Uch mustaqil guruh (ofitser, serjant va oddiy xizmatchilar) o'rtasidagi statistik farqlarni aniqlash uchun norametrik statistika usuli - Kruskal-Uollis H mezonidan foydalanildi [8]. Natijalarning ishonchlilik darajasi $p<0,05$ va $p<0,01$ chegaralarida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maslach Burnout Inventory (MBI) metodikasi bo‘yicha boshqaruv bo‘g‘ini kesimida olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: **Maslach Burnout Inventory (MBI) ko‘rsatkichlarining boshqaruv bo‘g‘ini bo‘yicha tafovutlari (N=310)**

№	Shkalalar (MBI faktorlari)	Ofitser tarkibi (N=95)	Serjant tarkibi (N=110)	Oddiy xizmatchilar (N=105)	H	p
1	**Emotsional charchash**	185,20	158,65	125,10	17,804	0,000**
2	**Depersonalizatsiya**	170,55	162,40	136,90	6,812	0,033*
3	**Kasbiy yutuqlarning pasayishi**	178,30	155,75	130,65	12,940	0,002**
4	**Umumiy kuyish darajasi**	182,90	157,20	127,55	19,375	0,000**

Izoh: * p<0,05 ** p<0,01

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, to‘rtta ko‘rsatkichning uchtasida (emotsional charchash, kasbiy yutuqlarning pasayishi, umumiy kuyish darajasi) guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan yuqori ishonchli farqlar (p<0,01) qayd etildi. “Depersonalizatsiya” shkalasi bo‘yicha farq p<0,05 darajasida ishonchli bo‘ldi (H=6,812, p=0,033).

Umumiy kuyish darajasi bo‘yicha (H=19,375; p<0,01) eng yuqori ko‘rsatkich ofitser tarkibida (182,90), undan keyin serjant tarkibida (157,20), eng past ko‘rsatkich esa oddiy xizmatchilarda (127,55) qayd etildi. Xuddi shunday tartib “emotsional charchash” (H=17,804; p<0,01) va “kasbiy yutuqlarning pasayishi” (H=12,940; p<0,01) shkalalarida ham kuzatildi - barcha holatlarda ofitser tarkibida eng yuqori, oddiy xizmatchilarda esa eng past ko‘rsatkichlar qayd etildi.

“Depersonalizatsiya” shkalasi bo‘yicha ham yuqori ko‘rsatkich ofitser tarkibida qayd etilgan bo‘lsa-da (170,55), bu farq boshqa shkalalarga nisbatan kamroq ifodalangan, bu esa depersonalizatsiya holatining boshqaruv mas’uliyatidan ko‘ra ko‘proq shaxsning individual xarakter xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligidan dalolat beradi.

Olingan natijalar boshqaruv mas’uliyati darajasi hissiy kuyish sindromining rivojlanishida muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

“Emotsional charchash” ko‘rsatkichining ofitser tarkibida eng yuqori bo‘lishi ularning nafaqat o‘z faoliyati, balki bo‘ysunuvchi xodimlarning xizmat natijalari, jamoaviy intizom va jangovar tayyorgarlik darajasi uchun ham mas’uliyat his qilishi bilan izohlanadi. Bunday ko‘p qatlamli mas’uliyat doimiy ruhiy zo‘riqishni keltirib chiqaradi, bu esa vaqt o‘tishi bilan chuqur charchash holatiga olib kelishi mumkin.

“Kasbiy yutuqlarning pasayishi” ko‘rsatkichi bo‘yicha ham ofitser tarkibida eng yuqori daraja qayd etilgani, ularning o‘z faoliyati natijalarini doimiy ravishda yuqori standartlar bilan taqqoslashi va bu borada real yoki xayoliy yetishmovchiliklarni his qilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Oddiy xizmatchilarda bu ko‘rsatkichning past bo‘lishi ularning zimmasidagi mas’uliyat doirasi nisbatan chegaralanganligi bilan izohlanadi.

“Depersonalizatsiya” bo‘yicha aniqlangan farq statistik jihatdan unchalik yuqori bo‘lmasa-da (p<0,05), ofitser tarkibida bu ko‘rsatkichning biroz yuqoriroq bo‘lishi ularning bo‘ysunuvchilar bilan muomalada rasmiy-mafkuraviy masofani saqlashga majburligi, bu esa vaqt o‘tishi bilan hissiy jihatdan “sovish” tendensiyasini kuchaytirishi mumkinligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, olingan natijalar boshqaruv bo‘g‘inidagi xodimlar, ayniqsa ofitser tarkibi, hissiy kuyish sindromi rivojlanishi nuqtai nazaridan eng yuqori xavf guruhini tashkil etishini ko‘rsatadi. Bu, o‘z navbatida, aynan ushbu toifadagi xodimlar uchun maqsadli psixoprofilaktik yordam ko‘rsatish zarurligini asoslaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot G‘arb ilmiy an’analarida hissiy kuyish (burnout) sindromining uch komponentli model va ish talablari-resurslari modeli asosida qanday nazariy talqin etilishini, shuningdek mazkur nazariy asoslarning harbiy xizmatchilarda hissiy kuyishni empirik o‘rganishga qanday tatbiq etilishi mumkinligini ko‘rsatdi.

MBI metodikasi asosida o‘tkazilgan qiyosiy tahlil natijalari shuni tasdiqladiki, boshqaruv bo‘g‘ini (ofitser, serjant, oddiy xizmatchi) bo‘yicha hissiy kuyish darajasi bir xil emas: to‘rtta ko‘rsatkichning uchtasida statistik jihatdan yuqori ishonchli (p<0,01) farqlar aniqlandi, bunda barcha holatlarda ofitser tarkibida eng yuqori, oddiy xizmatchilarda esa eng past ko‘rsatkichlar qayd etildi. Bu, boshqaruv mas’uliyati darajasi ortishi bilan hissiy kuyish xavfining ham ortib borishini tasdiqlaydi.

Olingan xulosalar nazariy jihatdan G‘arb burnout nazariyalarini mahalliy harbiy xizmat kontekstida amaliy tasdiqlashga xizmat qilsa, amaliy jihatdan quyidagi tavsiyalarni ilgari surish imkonini beradi:

birinchidan, ofitser tarkibi uchun boshqaruv stressini boshqarish, vazifalarni oqilona taqsimlash (delegatsiya) va vaqtni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi maxsus trening dasturi joriy etilishi lozim;

ikkinchidan, harbiy qismlarda psixologik yengillashtirish xonalari va muntazam psixologik konsultatsiya xizmatini yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi;

uchinchidan, barcha boshqaruv bo‘g‘inlari uchun emotsional regulyatsiya va kasbiy his-tuyg‘ularni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi bazaviy psixoprofilaktika dasturi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Kelgusi tadqiqotlarda hissiy kuyish darajasining xizmat staji, jangovar tajriba mavjudligi va oilaviy holat kabi omillar bilan bog‘liqligini, shuningdek ishlab chiqilgan psixoprofilaktika dasturining amaliy samaradorligini maxsus tadqiqotlar asosida chuqurroq o‘rganish dolzarb yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Maslach C., Jackson S.E. The measurement of experienced burnout // Journal of Occupational Behaviour. - 1981. - Vol. 2, No. 2. - P. 99-113.
2. Freudenberger H.J. Staff burn-out // Journal of Social Issues. - 1974. - Vol. 30, No. 1. - P. 159-165.
3. Maslach C., Schaufeli W.B., Leiter M.P. Job burnout // Annual Review of Psychology. - 2001. - Vol. 52. - P. 397-422.
4. Cherniss C. Staff Burnout: Job Stress in the Human Services. - Beverly Hills: Sage Publications, 1980. - 197 p.
5. Violanti J.M., Paton D. (Eds.) Police Trauma: Psychological Aftermath of Civilian Combat. - Springfield: Charles C. Thomas, 1999. - 456 p.
6. Bakker A.B., Demerouti E. The Job Demands-Resources model: state of the art // Journal of Managerial Psychology. - 2007. - Vol. 22, No. 3. - P. 309-328.
7. Караяни А.Г., Сыромятников И.В. Прикладная военная психология. - СПб.: Питер, 2006. - 288 с.
8. Kruskal W.H., Wallis W.A. Use of Ranks in One-Criterion Variance Analysis // Journal of the American Statistical Association. - 1952. - Vol. 47, No. 260. - P. 583-621.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.